



INSON HUQUQ VA ERKINLIKALARINI TA'MINLASH

Ziyotova Karomat Ergashevna,
Kattaqo 'rg'on tuman 1-sون IDUM
Oliy toifali tarix fani o'qituvchisi
Telefon:+998976117215
z.karomat60@gmail.com

Annotatsiya: Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, inson huquqlari, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy jamiyat, insonparvarlik prinsipi, ijtimoiy tushuncha, jamiyat taraqqiyoti, jamiyat va shaxs, fuqarolik tushunchasi, inson va fuqaro, ideal tushuncha, ma'naviy hayot, ushbu maqolada ijtimoiy fanlarning taraqqiyoti, ijtimoiy faol fuqarolik, jamiyatda ijtimoiy fanlarning o'rni, ijtimoiy fanlarga bo'lgan e'tiborning jamiyatda aks etishi.

Kalit so'zlar: huquq, erkinlik ijtimoiy fan, ijtimoiy nazar, jamiyat rivoji, fanlar taraqqiyoti.

ENSURING HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS

Ziyotova Karomat Ergashevna,
Teacher of history of the highest category IDUM No. 1 of
Kattakurgan district

Annotation: Ensuring human rights and freedoms, human rights, legal consciousness, legal culture, legal society, the principle of humanity, social understanding, social development, society and the individual, the concept of citizenship, man and citizen, ideal understanding, spiritual life, in this article development, socially active citizenship, the role of social sciences in society, the reflection of attention to social sciences in society.

Keywords: law, freedom, social science, social perspective, development of society, development of sciences.

Ijtimoiy fanlarga e'tibor eng diqqatga sazovar masaladir. Jamiyatdagi hamma narsa (moddiy va ma'naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Insonlar faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Jahon tarixida xalqlarning yuksalishi ularning ma'naviy, g'oyaviy birlashuvidan boshlangan. Jahon geosiyosiy maydonidagi o'zgarishlar, globallashuv jarayonlarining quchayishi hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi yer yuzidagi davlatlar tarixida keskin burilish yasadi. Insoniyat mutlaqo o'zgacha muhit, yangicha talab va ilgarilari kuzatilmagan xavf-xatar hamda tahdidlar quchaygan bir sharoitda yashashiga to'g'ri qelmoqda.



Dunyo miqiyosida shiddat bilan qechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jahbalariga, jumladan, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarga ham jiddiy ta'sir o'tkazmoqda.

Shuningdek, so'nggi yillarda dunyoning turli mintaqasi va davlatlarida sodir bo'layotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, internet tizimi, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko'p hollarda ayrim buzg'unchi kuchlar qo'lida turli soxta, zararli g'oya va mafkuralarni targ'ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar yemirilishiga, zo'ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas'uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlar ildiz otishiga, odamzotning o'z tarixiy, diniy, milliy-ma'naviy ildizlaridan uzilib qolishiga sabab bo'lmoqda. Bunday murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrash, mustaqillikni mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelgan va bundan keyin vazifalar kundalang bo'lib boraveradi.

Zero, o'zgarib borayotgan dunyo manzarasi va uning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, vujudga qelayotgan siyosiy voqelik va o'zgarishlarni milliy va umuminsoniy manfaatlar asosida tahlil etish, mavjud tahdid va xavf-xatarlar kelib chiqish sabablarini idrok etgan holda ularga qarshi kurashda butun jamiyatni safarbar etish mamlakat kelajagi va barqaror taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Jamiyatni safarbar etuvchi kuch sifatida esa bu jarayonda azaldan xalqning ma'naviy-ruhiy tayanchi bo'lgan fan, ijtimoiy-gumanitar fanlar muhim o'rin tutgan.

Tarixda xalqlarning yuksalishi ularning ma'naviy, g'oyaviy birlashuvidan boshlangan. Rivojlangan demokratik mamlakatlarda ijtimoiy fanlar negizida milliy g'oya taraqqiyotga undovchi quch sifatida xalqlarning azaliy milliy qadriyat va xususiyatlariga bog'lab singdirilgan. Uning qudratli mafquraviy ta'siri mamlakat aholisini umumiylar yo'lida birlashtirgan. Shu bois ham, O'zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida ko'p millatli xalqimizning yagona milliy g'oyasi dunyo ijobiy tajribasining nafaqat ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy-axloqiy jihatlarini, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalardagi, jumladan shaxsning intellektual salohiyatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq muhim yutuqlarini ham ijtimoiy fanlar o'zida mujassam etadi.

Bugun xalqimiz, Vatanimiz intilayotgan milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga xos asosiy xususiyatlar, maqsad va vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligidida ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasi va boshqa muhim ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hujjatlarda aniq belgilab berildi. Ularda jahondagi, Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyat, rivojlanish tendensiyalari, istiqboldagi taraqqiyot yo'llari chuqur tahlil etilgan[1.29-b].

Xo'sh, ana shunday yangi bosqichni boshlagan mamlakatimizning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlarini xalqimiz, qolaversa asosiy tayanchimiz bo'lgan yoshlar qalbi va ongiga qaysi fan asosida sindiriladi? Albatta ijtimoiy-gumanitar fanlar asosida.

Ijtimoiy fanlarning bugungi kunda har qachongidan ko'ra vazifalari oshib bormoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, O'zbekistonda ayni shu asosda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyat hayotining barcha sohalarini yanada liberallashtirish borasida keng ko'lamlili islohotlar amalga oshirilmoqda. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekani haqidagi Konstitusiyaviy tamoyil asosida xalq bilan muloqot davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Mamlakatni innovation rivojlantirish, odamlarda faol fuqaroliq pozisiyasi va tashabbuskorlikni kuchaytirish, mustaqil dunyoqarash va fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, jamiyatdaadolat ustuvorligini ta'minlash, xuquqiy-demokratik davlat asoslarini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurash, jaholatga qarshi ma'rifikat bilan kurashish bo'yicha belgilangan muhim vazifalar ijtimoiy fanlar oldiga ham ulkan vazifalarni qo'ydi.

Harakatlar strategiyasi asosida kechayotgan shiddatli islohotlar xalqning kelajakka ishonchini mustahkamlash, uni bunyodkorlik ishlariga safarbar qilish, jamiyatda uchrayotgan illatlar, xususan, loqaydlik, boqimandalik va korrupsiya kabi holatlarga qarshi faol kurashishga da'vat etmoqda.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va yangilanishlar jarayonida milliy g'oyani rivojlantirish kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlarining salbiy oqibatlari, yangi mafkuraviy xavf va tahdidlar ko'laming kengayib borayotgani mazqur masalaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bu jarayonda ayniqsa, ijtimoiy fanlar o'qituvchilaridan nafaqat dars jarayonida, balki butun jamoatchilik orasida quyidagilarga alohida ahamiyat berish talab etilmoqda:[2. 71-b]

birinchidan, mamlakatimizni bugungi tez taraqqiy etib borayotgan dunyoga mos ravishda rivojlantirish, jamiyat a'zolarini milliy yuksalish yo'lida yanada birlashtirish va safarbar etish masalasiga alohida e'tibor qaratish;

ikkinchidan, mamlakat tinchligi, xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy qadriyatlariga asoslangan hayot tarzini barbod qilishga yo'naltirilgan g'oyaviy-mafkuraviy taxidlarga qarshi kurashda sinovdan o'tgan milliy va jahon tajribasining samarali usullaridan keng foydalanish;

uchinchidan, dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlar, turli axborot xurujlari mazmun-mohiyatini anglash, xalqaro terrorizm va ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik va odam savdosi, narkobiznes, "ommaviy madaniyat" kabi turli xavf va tahidlarga qarshi kurashishda kuchlarni birlashtirish va ularni umummilliy harakat darajasiga olib chiqish;

to'rtinchidan, dunyoviylik va diniylikning sog'lom muvozanatini ta'minlash, insof, vijdon, diyonat kabi axloqiy qadriyatlarga tayanib yashash va faoliyat yuritishni fuqarolarning dunyoqarashi va xatti-harakatiga singdirish;

beshinchidan, O‘zbekiston ko‘p millatli bag‘rikeng diyor ekanini inobatga olgan holda, “Milliy g‘oya–bizning g‘oya” degan tushunchani barcha millat va elat vakillari o‘rtasida keng targ‘ib etish;

oltinchidan, vatanparvarlik tuyg‘usini quchaytirish, aholining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faolligi va fuqarolik mas’uliyatini oshirish;

yettinchidan, inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim va tarbiyani milliy g‘oya qadriyatlari darajasiga ko‘tarish, ta’lim olishga bo‘lgan intilishni rag‘batlantirishning samarali mexanizmlarini joriy etishda samarali faoliyat olib borish dolzarb ekanligi kundek ravshan.

Bugungi kunda dunyoda innovation g‘oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz biror-bir soha rivojini tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zbekistonning eng katta boyligi – bu xalqning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir.

Milliy yuksalish g‘oyasi xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatini ro‘yobga chiqarib, O‘zbekistonning yangi tarixida uchinchi renessans davrining boshlanishiga xizmat qiladi. Bunday jarayonda ijtimoiy fanlarning rolini yanada kuchaytirish, keraksiz fan sifatida qaraydigan ayrim mutasaddi rahbarlarga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda “ijtimoiy soha olimlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning boy tajriba va bilimlaridan keng foydalanish” [3.63-b]bugungi kunning muhim masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: “O‘zbekiston” 2018. 29- bet.
2. Ma’rifat gulshani: Diniy ma’rifat va ma’naviy axloqiy tarbiya masalalar bo‘yicha maslahatchilar uchun uslubiy qo‘llanma // Mualliflar jamoasi. T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot- matbaa birlashmasi, 2014 y, 71-bet.
3. 2017-20121 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy uslubiy risola. T.: “Ma’naviyat”, 2017 y. 63-bet.